

O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA MADANIY ASPEKTDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

G.Yusupova

NDPI O'zbek tili kafedrası dotsenti

S.Mawlenkulova

NDPI magistranti 1-bosqich talabasi

Har qanday ilmiy amaliyotning asosida yotuvchi nazariy fikr-mulohazalar xorijiy til ta'limida ham juda keng va chuqur ildizga ega hisoblanadi. Jahon tajribasida ushbu yo'nalishda mavjud metodologik asoslarni tahlil qilish o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda ham madaniyat aspektidan foydalanish masalasiga oid bir qator ilmiy - nazariy mulohazalarni yuzaga chiqaradi. Garchi har bir tilni xorijiy til sifatida o'qitish o'ziga xos xususiyatlarga ega sanalsa-da, tilning kommunikativ funksiyasidan kelib chiqib muayyan ilmiy gipotezalarni tahlil qilish, tavsiflash va o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda madaniy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoniga tadbiiq etish yuzasidan mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va tavsiflash maqsadga muvofiq sanaladi.

Oxirgi 30-40 yil davomida o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishga qanchalik katta ehtiyoj va talab bo'lmasin, o'zbek tili ta'limining bu yo'nalishida zamonaviy til ta'limi talablariga javob bera oladigan darslik, qo'llanma, platforma va boshqalar yetarlicha takomillashtirilmasdan qolib kelmoqda. Zero, bugun muayyan tilni xorijiy til sifatida o'qitishda beshta muhim ko'nikmadan iborat nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish, til o'rganuvchining o'rganilayotgan tilda gapirish ko'nikmasi, yozma savodxonlik, eshitib tushunish, o'qib tushunish va madaniy kompetentligini oshirish davr talabiga aylanayotgan bir davrda kommunikativ yondashuvga asoslangan madaniy kompetentlikni ham alohida ko'nikma sifatida qabul qilish yoki qolgan to'rt ko'nikmaning ichiga singdirib yuborish bahsli masala sifatida qaralmoqda. Ammo til o'qitishda muloqot to'siqlari va tushunmovchiliklarni bartaraf etish uchun madaniy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishga ham zarur masala sifatida qarash ham nazariy ham amaliy jihatdan to'liq o'z tasdig'iga egadir. Zotan, bugungi tahlikali davrda muvaffaqiyatli kommunikatsiya davlatlararo va millatlararo tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikning kaliti sifatida e'tirof etilayotgan bir paytda, dunyo xorijiy til ta'limi tajribasida **tilda xato qilsang qil, lekin madaniyatda xato qilma** degan tamoyilga asoslangan madaniyatlararo yondashuvning tarafdorlari ko'payishi ham til

o'qitishda madaniy aspektdan foydalanishning qanchalik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Shubhasiz, o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rganishdan asosiy maqsad tabiiy til muhitida faol muloqotga kirisha olishdir. Bugun xorijiy tillarni o'qitishdan ko'zlangan eng asosiy maqsadlardan biri esa til o'rganuvchilarning til va madaniyat to'siqlarini yengib o'tgan holda muloqotga kirisha olishini rivojlantirish hisoblanadi.¹ Til va madaniyat uzviy bog'liqligini hisobga olgan holda xorijiy tillarni o'qitish jarayonida madaniyatni ham o'rgatish til o'qitishning asosiy qismi sanaladi.² Xorijiy tilni madaniyat aspektidan foydalanmasdan turib o'rgatish til o'rganuvchining eng asosiy muloqot mazmunini anglatish uchun yetarli bo'lishi mumkin, ammo madaniyatdan bexabarlik yoki uni tushunmaslik kommunikantning faol muloqot kompetentligini namoyon qilishida jiddiy to'siqqa aylanadi.

Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha jahonning taniqli mutaxassislari Byram, Kramersch, Seelye, Chastain va boshqalar chet tillarini o'rganishdan maqsad nima bo'lishidan qat'i nazar madaniyatga oid bilimlarni o'rgatishdan aylanib o'tib keta olmasligini ta'kidlaydi. Muayyan xorijiy tilni u foydalanilayotgan jamiyat madaniyatidan alohida olgan holda o'rganib ham o'qitib ham bo'lmaydi. Bu haqiqat bugungi til ta'limining asosiy yondashuvlarida ham aks ettiriladi³.

Zero, bugungi til ta'limida xorijiy til o'qituvchisi sifatida o'rgatayotgan tilimiz egalarining madaniyatini ham tadqiqotchisi bo'lishimiz talab etiladi. Bu o'zga bir madaniyatni o'rgatishni xohlashimiz yoki xohlamasligimiz bilan emas, balki o'rgatmoqchi bo'lgan tilimiz madaniyatini o'qitishimiz shartligi bilan xarakterlanadi⁴.

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlardan madaniyat o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda ham muhim ahamiyatga ega ekanligini anglashimiz mumkin. Ammo madaniyat juda katta konsept ekanligi va o'z ichida bir qancha tushunchalarni jamlagan konseptosfera hosil qilishini unutmasligimiz lozim. Shu bois til o'qitish jarayonida madaniyatga taaluqli bo'lgan har qanday elementlarni qamrab olish imkonsizdir. Bu esa madaniyatning til o'qitishga aloqador qismlarini alohida tavsiflashni taqazo etadi. Bu vazifani bajarish uchun esa, avvalo, madaniyat konseptining o'zini tavsiflash va yondosh y konseptlar bilan o'zaro

¹ Common European Framework of reference for languages: Learning, teaching, assessment. (CEFR) 2001.

² Chastain, K. Developing Second Language Skill. Theory and Practise, Orlando: Florida. 1988.

³ Robinson-Stuart. G. Nokon. Second culture acquisition: Ethnography in foreign language classroom. Modern Language Journal. 1996. P:80

⁴ N. Brooks.. Culture in the classroom. Culture bound. Bridging in the cultural gap in the language classroom. Cambridge university press.1986. P 128-135.

bog‘liqliklarini va farqlarini aniqlashtirib olish, madaniyat konsepti o‘z ichiga oluvchi slot-tarkibiy qismlarni va geshtelt- ichki bog‘lanish iplarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Madaniyat juda katta konsept hisoblanadi. Keng ma’noda madaniyatni insonning olamni idrok etishi va tafakkur qilishi natijasida o‘zi uchun to‘g‘ri deb hisoblagan haqiqatlari deb hisoblasak bo‘ladi⁵. Bu o‘rinda madaniyat insonni hayvonot dunyosidan farqlab turuvchi belgisi hisoblanadi. Shuningdek, madaniyat konseptini muayyan davr yoki sivilizatsiya haqida fikr yuritilganda ham qo‘llashimiz mumkin. Misol uchun turkiy etnoslarning shakllanishida katta o‘ringa ega bo‘lgan “*Qovunchi madaniyati*” yoki “*Sharq madaniyati*” . Madaniyatga xususiy nuqtayi nazardan yondashsak, uning muayyan guruh yoki qatlamga xos xususiyatni aks ettirganligiga guvoh bo‘lamiz. Masalan: *yoshlar madaniyati, ko‘cha madaniyati*. Bu kontekstda madaniyat etiket, xulq-atvor, axloq konseptlari bilan bir konseptosferaga birlashadi.

Madaniyat konseptining murakkab konseptual xarakterga ega ekanligi unga nisbatan aniq tavsif yoki ta’rifni keltirish imkoniyatimizni cheklaydi. Bu esa leksikograf olim Hinkelning “madaniyat konseptini insoniyat jamiyati, guruh, tizim, xulq-atvor yoki faoliyatga oid diskurs tarkibida olib tavsiflash kerak⁶” –degan mulohazalari asosli ekanlini ko‘rsatadi.

Ko‘pchilik insonlar uchun madaniyat muayyan etnosga tegishli san’at, adabiyot, urf-odatlar va kundalik turmush-tarzi sanaladi. Ammo bu madaniyatning muayyan ko‘rinishga ega bo‘lgan qismlari hisoblanib, ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan kognitiv anglanadigan madaniy axloq tarkibiy qismlarining e’tibordan chetda qolayotganligini anglatadi. E’tiqod, qadriyatlar, ijtimoiy normalar va munosabatlar ham aynan madaniyatning aspektlari doirasida o‘rganiladi. Misol uchun islom qadriyatlari asosida shakllangan *andisha, uyat, nomus, or* kabi fazilatlarini va ular voqealanadigan hayotiy va nutqiy vaziyatlarni o‘zbek madaniyatining ajralmas bo‘lagi sifatida talqin qilish mumkin.

Madaniyatni konsept sifatida tavsiflashga bo‘lgan dastlabki urinishlar antropologlar tomonidan olib borilgan. Ingliz antropologi *Tylor* “Madaniyat ibtidosi” (Primitive culture) deb nomlangan kitobida “Madaniyat - ... bilim, etiqod, san’at, axloq, urf-odat, qadryat, qoida va inson faoliyatiga oid ko‘nikmalarni

⁵ L. Teppermen. J.Curtis. S.Wilson and others.. Small world. International reading in sociology. Ontario. Prentise Hall Canada. INC.

⁶ E. Hinkel. Culture in Second Language Teaching and Learning. Cambridge University Press. 1999.

birlashtirishi⁷” haqida fikrlarini bayon qiladi. Antropologiyaning shakllanishi madaniyat haqida kengroq tavsiflarning paydo bo‘lishiga turtki bo‘ladi. Amerikalik antropologlar Kroeber va Kluckhohn “*Madaniyat: konseptning tanqidiy tahlili va ta’riflar*” (Culture: Critical review of concept and definition) asarida madaniyatning 300 ortiq ta’rif va tavsiflarini keltirib o‘tadi⁸. Bu ta’riflarning insoniyat hayotining barcha aspektlarini qamrab olganligi va aksariyatida qaysidir insonga xos xarakter-xususiyat izohlanganligi bilan e’tiborni tortadi. Lingvomadaniyatshunoslikning alohida fan sifatida tadqiqot maydoniga ega bo‘lishi madaniyat konseptining tilshunoslar tomonidan ham tavsiflanishiga sabab bo‘ladi. Lado “madaniyatlar bo‘ylab tilshunoslik “ (Linguistics across cultures) kitobida madaniyat Chastain, Brown kabilar tomonidan “yashash tarzi, hayot tarzi” sifatida talqin qilinishini ta’kidlab o‘tadi va madaniyatni muayyan bir davrda ma’lum bir insonlar guruhiga berilgan g‘oyalar, urf odatlar, ko‘nikmalar va boshqalar majmuasi ekanligini alohida izohlaydi⁹.

Ko‘plab olimlar til va madaniyat uzviyligiga urg‘u beradi. Brownga ko‘ra “til madaniyatning bir qismi bo‘lishi bilan birga madaniyat ham tilning bir qismi hisoblanishini, ularni bir-biridan ajratish har ikkalasining ham kemptikligiga sabab bo‘lishini ta’kidlaydi”¹⁰. Bryam til lisoniy birliklar orqali ifodalanadigan denotativ va konnatativ semantik ma’nolari orqali bevosita madaniyatni ham o‘qitishini ta’kidlab o‘tadi¹¹. Kramsch til va madaniyat uch tomonlama o‘zaro bog‘langanligini ta’kidlab o‘tadi.

Birinchidan, til madaniy reallikni ifodalaydi, ya’ni so‘zlar nafaqat fakt va g‘oyalarni balki insonlarning muayyan masalalardagi munosabatlarini ham ko‘rsatadi. *Ikkinchidan*, til madaniy reallikni qamraydi, ya’ni insonlar kommunikatsiya vositasi orqali o‘z hayotiy tajribalarini anglatadi.

Uchinchidan, til madaniy reallikni ramzlashtiradi, ya’ni til egalarining ijtimoiy hayot normalari til vositasida voqealanadi¹².

Muayyan etnik guruh yoki mamlakat egalarining madaniyatini tadqiq qilishga ikki tomonlama qarash mumkin. Birinchi qarashga ko‘ra madaniyat

⁷ The New Encyclopedia Britannica. 1991. Volume 16.

⁸ H.N. Seelye. Teaching culture: Strategies for intercultural communication. Third edition. National textbook company. 1993.

⁹ R. Lado. How to compare two language. Culture bound. Bridging in the cultural gap in the language classroom. Cambridge university press. 1986

¹⁰ H.D. Brown. Principles of Language learning teaching. Fourth edition. London. Longman. 2000

¹¹ M. Bryam. Cultural studies in foreign language education. Clevedon. Multilingual Matters. 1989

¹² C. Kramsch. Language and Culture. Oxford University Press. 1998.

o'sha madaniyat egalari tomonidan o'rganiladi. Ikkinchi qarashga ko'ra madaniyatning til o'rganish jarayonida duch kelinadigan jihatlari o'rgatilishi yoki o'rganilishi talab etiladi. Buni soddaroq qilib biror madaniyatning o'zlari va o'zgaralar tomonidan o'rganilishi deya tushunish mumkin.

O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish masalasi qanchalik dolzarb hisoblanmasin, ushbu jarayondagi ishlarni bir qator ichki va tashqi omillar ta'sirida tizimli va keng ko'lamli yo'lga qo'yib ulgurilgani yo'q. Bu esa bu yo'nalishda yaratilgan darsliklarda va o'quv dasturlarida madaniy aspektdan foydalanishning e'tibordan chetda qolayotganligi yoki notog'ri metodologiya asosida olib borilayotganligini ko'rsatadi. Biz o'zbek tilini xorijiy tili sifatida o'qitishda madaniy aspekt ishtirok etishini, til o'qitish jarayonida qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini sohaning taniqli mutaxassislari Michael Bryam, Claire Kramersch, Kenneth Chastainlar tomonidan bildirilgan nazariy va ilmiy fikr-mulohazalar asosida ko'rsatishga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Byram, M. and Fleming, M.(eds.), 1998. *Language Learning in Intercultural Perspective. Approaches through drama and ethnography*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. C. Kramersch. *Language and Culture*. Oxford University Press. 1998.
3. Brown, H. D. 2000. *Principles of Language Learning and Teaching*. Fourth edition. London: Longman. Pearson Education Limited.
4. Abdurahmonov X., Shodmonov E., Rafiev A., O'zbek tili. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri. Toshkent "O'qituvchi".1995
5. Dilorom Tosheva. Atoulllo Ahmedov. Bukhara. Uzbek language for foreigners. 2020
6. Kurtulush O'ztopchu. Amerika Qo'shma Shtatlari. Kaliforniya universiteti 1994-yil.
7. Nigora Azimova. Elementary textbook, Georgetown Universiteti nashryoti. 2010.
8. Худаярова, М. Т., Буранова, Ш. М., Юсупова, Г. А., & Сапарова, А. З. (2021). Қорақалпоғистон Худудида Яшовчи Туркий Халқлар Тилидаги Таом Номларининг Лексик Қатламлари. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 25-32.
9. Atakhanovna, Y. G., & Azada, A. (2021, May). FEATURES OF THE USE OF MIXED EDUCATION IN UZBEK LANGUAGE CLASSES. In E-Conference Globe (pp. 77-80).
10. Ataxanovna, Y. G., Tajimuratovna, X. M., & Menglibayevna, B. S. (2023). ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY KONIKMALARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI. *SCIENCE TIME JOURNAL*, 1(3), 42-49.
11. Tajimuratovna, X. M., Menglibayevna, B. S., Ataxanovna, Y. G., & Menlibayevna, S. A. (2023). QORAQALPOG 'ISTON HUDUDIDAGI EKKLEZIONIMLARNING O 'ZIGA XOS SEMANTIK XUSUSIYATLARI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(9), 25-30.
12. Юсупова, Г. А. (2020). ЎЗБЕК ТИЛИ ДАРСЛАРИДА АРАЛАШ ТАЪЛИМДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. In *ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ* (pp. 100-104).